

OZIQ-OVQAT SANOATIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA TAHLIL QILISH TAMOYILLARI HAMDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xudoyberdiyev Ulug'bek Shuxratovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,
Moliyaviy tahlil kafedrasida mustaqil izlanuvchisi,
khudoyberdiyev@bk.ru

Dolzarblik. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash va mahsulot tannarxini optimallashtirish masalalari tobora dolzarblashib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi Tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, jahon oziq-ovqat sanoati 2024 yilda 9 trillion AQSh dollaridan ortiq aylanmaga ega bo'lib, mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o'rtacha 4-8 foizini ta'minlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda mamlakat oziq-ovqat sanoati hajmi 78,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining 16,2 foizini tashkil etgani holda tarmoqda 4 200 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda va 285 mingdan ziyod aholining bandligi ta'minlangan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida xom ashyo sifatining tez o'zgaruvchanligi, ishlab chiqarishning mavsumiyliги, texnologik jarayonlarning murakkabligi va chiqindilarning yuqori ulushi kabi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishda maxsus yondashuvni talab etadi. So'nggi besh yilda jahon oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Big Data asosidagi xarajatlar hisobi tizimlari jadal rivojlanmoqda, ammo O'zbekistonda zamonaviy boshqaruv hisobi metodlari (Standart-kost, Direkt-kosting, ABC-tahlil) faqat 18 foiz korxonalarda joriy etilgan. Shunga qaramasdan, tarmoqda xarajatlarni hisobga olish tamoyillari, ularning tarmoq xususiyatlariga moslashuvi va jahonda kuzatilayotgan rivojlanish tendensiyalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Muammo. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy ahamiyati oshib borayotganiga qaramasdan, tarmoqda xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish tamoyillari hamda ularning rivojlanish tendensiyalari tizimli o'rganilmagan. Birinchi muammo shundaki, ko'pchilik oziq-ovqat korxonalarida (64 foiz) an'anaviy hisob usullari (buyurtmali, qayta taqsimlash va normativ usullar) qo'llanilmoqda, bu boshqaruv qarorlari sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Ikkinchi muammo - tarmoqda xarajatlarni hisobga olishning yagona metodologik asoslari va tamoyillari tarmoq xususiyatlari (xom ashyoning biologik tabiati, birlashma mahsulotlar, chiqindilarni qayta ishlash) ni to'liq inobatga olmaydi. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi tendensiyalar (ERP-tizimlar, IoT-sensorlar, blokcheyn texnologiyalari asosidagi izlanuvchanlik) oziq-ovqat sanoatiga joriy etilishida tizimli yondashuv yo'q. To'rtinchidan, korxonalar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va zamonaviy boshqaruv hisobi konsepsiyalari (Target-kosting, Kayzen-kosting, Lin-akkaunting) bo'yicha metodologik bazaga ega emas. Beshinchidan, ekologik va ijtimoiy



xarajatlarni hisobga olish (ESG-hisobot) masalalari, shuningdek barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida oziq-ovqat tarmog'iga oid maxsus yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Ushbu muammolarni hal qilmaslik korxonalarining raqobatbardoshligini pasaytiradi va eksport salohiyatini cheklaydi.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat sanoatida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish tamoyillarini tarmoq xususiyatlari asosida tizimlashtirish, zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda korxonalar faoliyatini samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari. Birinchidan, oziq-ovqat sanoatida xarajatlarni hisobga olishning asosiy tamoyillari aniqlandi. Tadqiqot natijasida sakkizta asosiy tamoyil tizimlashtirildi: davriylik tamoyili (xarajatlar tegishli hisobot davrida aks ettirilishi), hujjatlilik (har bir xarajat birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlanishi), uzluksizlik (xarajatlarni doimiy va tizimli hisobga olish), tarmoq xususiyatlarini inobatga olish (xom ashyoning biologik tabiati, mavsumiylik), mahsulot turlari bo'yicha ajratish (umuishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri taqsimlash), xarajatlar va natijalarning solishtirilishi, relevantlik (boshqaruv qarorlari uchun ma'lumotlarning ishonchliligi) hamda tejamkorlik (hisob tizimi xarajatlarining me'yordan oshmasligi). Ikkinchidan, mahsulot tannarxining tarkibiy tahlili amalga oshirildi. O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida xom ashyo va materiallar xarajatlari jami tannarxning 65-75 foizini tashkil etishi aniqlandi (non sanoatida - 68,5%, sut sanoatida - 72,3%, go'sht sanoatida - 75,8%). Mehnat haqi xarajatlari ulushi 8,2-10,4 foiz oralig'ida, yoqilg'i va energiya xarajatlari - 3,5-6,2 foiz, amortizatsiya - 2,8-3,2 foizni tashkil etadi. Uchinchidan, zamonaviy xarajatlar hisobi metodlarining qiyosiy tahlili o'tkazildi. Standart-kost metodi tannarxni 8-10% ga, Direkt-kosting - 7-9% ga, ABC-tahlil esa 10-12% ga kamaytirish samarasini beradi. Biroq O'zbekistonda ular jami 18% korxonalarda joriy etilgan bo'lsa, Germaniyada bu ko'rsatkich 78%, Italiyada 65%, Polshada 54% ni tashkil etadi. To'rtinchidan, rivojlanish tendensiyalari bo'yicha besh asosiy yo'nalish aniqlandi: raqamlashtirish va avtomatlashtirish (ERP-tizimlar, SAP), sun'iy intellekt va Big Data asosida xarajatlarni prognozlash, IoT-sensorlar orqali real vaqtdagi monitoring, blokcheyn texnologiyalari asosida xom ashyo izlanuvchanligi hamda barqarorlik va ESG-hisobot tamoyillarini joriy etish. Beshinchidan, tarmoq korxonalarida yuzaga kelayotgan iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari o'tkazildi. Zamonaviy xarajatlar hisobi tizimini joriy etish orqali mahsulot tannarxini 8-12% ga kamaytirish, xom ashyo sarfini 5-7% ga optimallashtirish, ishlab chiqarish chiqindilarini 15-20% ga kamaytirish va rentabellikni 5-7 foizga oshirish mumkin ekani aniqlandi. Oltinchidan, xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida Germaniya kontrolling tizimi, AQSh Lin-akkaunting yondashuvi, Yaponiya Target va Kayzen-kosting falsafalari hamda Polsha tajribasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirib qo'llanilishi mumkinligi isbotlandi.

Ilmiy xulosalar va takliflar. Birinchidan, oziq-ovqat sanoati korxonalarida xarajatlarni hisobga olishning tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan yagona tamoyillar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim sakkizta asosiy tamoyil (davriylik, hujjatlilik, uzluksizlik, tarmoq



xususiyatlarini inobatga olish, mahsulot turlari bo'yicha ajratish, taqqoslash, relevantlik va tejamkorlik)ni o'z ichiga olib, tarmoqning o'ziga xos tomonlari (xom ashyo sifatining tez buziluvchanligi, mavsumiylik, mahsulot assortimenti) bilan to'liq mos keladi. Ikkinchidan, tarmoq korxonalarining 64 foizi an'anaviy hisob metodlaridan foydalanmoqda, bu holat raqobatbardoshlikni pasaytirmoqda. Buning o'rniga Standart-kost, Direkt-kosting va ABC-tahlil kabi zamonaviy metodlarni bosqichma-bosqich joriy etish zarur: yirik korxonalarda - Standart-kost va ABC-tahlilni birlashtirgan tizim, kichik va o'rta korxonalarda - Direkt-kosting tizimi. Uchinchidan, ishlab chiqilgan regression model asosida zamonaviy xarajatlar hisobi metodlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi baholandi va ularning iqtisodiy multiplikator effekti 2,8 ni tashkil etishi aniqlandi, ya'ni har bir investitsiya qilingan so'm 2,8 so'm qo'shimcha samara keltiradi. To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida uchta asosiy rivojlanish tendensiyasi aniqlandi: integratsiyalashgan ERP-tizimlarni joriy etish, sun'iy intellekt yordamida xarajatlarni prognozlash hamda blokcheyn texnologiyalari yordamida xom ashyoning "daladan-dasturxongacha" sifatli zanjirini ta'minlash. Beshinchidan, tavsiya etilayotgan kompleks chora-tadbirlar tizimi uch bosqichni o'z ichiga oladi: qisqa muddatli (2025-2026) - Standart-kost tizimini 50 ta yetakchi korxonada pilot loyiha sifatida joriy etish, o'rta muddatli (2026-2028) - ABC-tahlilni ommaviy joriy etish va tarmoq benchmarking tizimini yaratish, uzoq muddatli (2028-2030) - sun'iy intellekt asosidagi tizimlarni va ESG-hisobot tamoyillarini joriy etish.

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha, oziq-ovqat sanoatida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish tamoyillarini tizimlashtirish hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini joriy etish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida zamonaviy boshqaruv hisobi metodlari rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 4-5 marta kamroq qo'llanilmoqda, bu tarmoqning raqobatbardoshligini sezilarli darajada pasaytirmoqda. Ishlab chiqilgan tavsiyalarga ko'ra, tarmoqda xarajatlarni hisobga olish tamoyillari tizimini joriy etish va zamonaviy tendensiyalarni (raqamlashtirish, sun'iy intellekt, blokcheyn, ESG-hisobot) o'zlashtirish orqali mahsulot tannarxini 10-12 foizga kamaytirish, rentabellikni 5-7 foizga oshirish hamda yillik 1,5-2 trillion so'm qo'shimcha iqtisodiy samara olish mumkin. Kelajakda tarmoqning alohida kichik sohalari (non, sut, go'sht, meva-sabzavot ishlab chiqarish) bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazish, raqamli texnologiyalarning xarajatlar hisobiga ta'sirini matematik modellashtirish hamda atrof-muhit bilan bog'liq xarajatlarni baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to'liq moslashuvi va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan milliy konsepsiyani shakllantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022. //





Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 13 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 iyuldagi PF-6019-son Farmoni "Oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".

5. Xorngren Ch.T., Datar S.M., Rajan M.V. Xarajatlar hisobi: boshqaruv yondashuvi. 16-nashr. – Pearson, 2018. – 956 b.

6. Kaplan R.S., Kuper R. Xarajatlar va samaradorlik: integratsiyalashgan hisob tizimlaridan foydalanish. – Harvard Business School Press, 1998. – 368 b.

7. Druri K. Boshqaruv va xarajatlar hisobi. 11-nashr. – Cengage Learning, 2021. – 832 b.

8. Sagdillaeva Z., Yuldasheva U., Xamidova S. Iqtisodiy tahlil: Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2023. – 445 b.

9. Pardaev A. va boshq. Boshqaruv tahlili. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2005. – 264 b.

10. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. – T.: "Yangi nashr", 2011. – 312 b.

11. Xamidova S.Ya. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining boshqaruv tahlilini amalga oshirish usullari // Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2026.

12. Xamidova S.Ya. Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2024. – №4. – 418-b.

13. Kodirov B.T. Oziq-ovqat sanoatida xarajatlarni hisobga olish muammolari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №3(81). – 56-65 b.

14. FAO. The State of Food and Agriculture 2023. – Rome, 2023. – 182 p.

15. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2024. – Paris, 2024. – 256 p.

